

SHARQ MUTAFFAKIRLARINING TILSHUNOSLIKKA QARASHLARI.

Andijon davlat chet tillari instituti,

*Talabasi: **Nusrataliyeva Musharrafxon.***

E-mail: nusrataliyevamusharrafm@gmail.com

*Ilmiy rahbar: **Xomidova Malohat***

Annotatsiya: Sharq mutafakkirlarining tilshunoslik sohasidagi qarashlari ularning chuqur ilmiy tafakkurini va tilga bo'lgan yondashuvlarining murakkabligini namoyon etadi. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Al-Zamaxshariy kabi allomalar tilning tabiati, uning jamiyatdagi o'rni, grammatik tuzilishi hamda mantiqiy asoslarini chuqur o'rgangan. Ularning ishlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham tilshunoslik taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu anotatsiyada Sharq tilshunoslik maktabining shakllanishi, uning asosiy g'oyalari va zamonaviy lingvistikaga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, tilshunoslik, Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, grammatik qarashlar, til nazariyasi, mantiq va til, tarixiy tilshunoslik.

Abstract: The views of Eastern thinkers in the field of linguistics demonstrate their deep scientific thinking and the complexity of their approaches to language. Scholars such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, al-Khwarizmi, Mahmud Kashgari, and al-Zamakhshari deeply studied the nature of language, its role in society, its grammatical structure, and its logical foundations. Their work had a great influence on the development of linguistics not only in their time, but also in subsequent centuries. This annotation analyzes the formation of the Eastern school of linguistics, its main ideas, and its influence on modern linguistics.

Keywords: Eastern thinkers, linguistics, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Khwarizmi, Mahmud Kashgari, grammatical views, language theory, logic and language, historical linguistics.

Аннотация: Взгляды мыслителей Востока в области языкознания демонстрируют их глубокую научную мысль и сложность подходов к языку. Такие ученые, как Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Хорезми, Махмуд Кашгари и Аз-Замахшари, глубоко изучали природу языка, его роль в обществе, грамматическую структуру и логические основы. Их творчество оказало большое влияние на развитие языкознания не только своего времени, но и последующих столетий. В данной аннотации анализируется становление восточной школы языкознания, ее основные идеи и ее влияние на современную лингвистику.

Ключевые слова: восточные мыслители, языкознание, Аль-Фараби, Ибн Сина, Аль-Хорезми, Махмуд Кашгари, грамматические взгляды, теория языка, логика и язык, историческое языкознание.

Qadimdan buyon ilm taraqqiyotiga dunyo bo`ylab bir qancha olimlar samarali ravishda hissa qo`shib kelmoqdalar. Shu bilan bir qatorda sharqdan ham bir qancha mutaffakirlar yetishib chiqib limning turli sohalarida izlanishlar olib bormoqdalar va rivojlanishiga salmoqli hissa qo`shib kelmoqdalar. Sharqdagi birqancha davlatlardan: Arablardan, xitoylardan, koreys ,qozoq, qirg`iz ,yaponlardan o`zbeklardan va bundan tashqari bir qancha davlatlardan salmoqli biz yosh avlodlarga o`rnak bo`la oladigan allomalar yetishib chiqqan .Yaponlardan :Murakama Haruki, Kendzaburo Oe, Kobo Abe, xitoylardan:Konfutsiy ,o`zbeklardan:Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur Arablardan:Zamaxshariy ,Javhari,yMahmud Koshg`ariy va boshqa minglab mutaffakirlar yetishib chiqqan. Bularning deyarli hammalari tilshunoslikka ham yetarli darajada o`zlarini hssalarini qo`shganlar va tilshunoslikka bee`tibor bo`lishmagan. Albatta hamma fanning boshlanishi negizi ma`lum bir miqdorda tilshunoslikka borib taqaladi.

Abu Nasr Farobiyning lingvistika qarashlari: Markaziy Osiyoning yirik mutafakkiri Abu Nasr Farobiydir. Uning to'la ismi-Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn O'zaliq al Farobiydir. U 873-950-yillar oralig'ida yashab o'tgan. Farobiy u davrda mavjud bo'lgan barcha ilmlardan bahramand bo'lishga intildi va hatto bu yo'lda ancha yutuqlarga erishish maqsadida u Bog'dod, Damashq, Halab, Harron kabi arab sharqining juda ko'p shaharlariga sayohat qildi, borgan shaharlarida olimlar bilan tanishar va ular bilan suhbatlashib, ulardan bahramand bo'lishga intilardi. Abu Nasr Farobiyning tilshunoslik, umuman filologiya sohasida ijod qilgan asarlari ko'p zamonlar o'tishiga qaramay, insonlarni so'zni sevish kabi olijanob fikrlardan qaytarmadi, Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida tillar va ularning lug'atlari haqida ma'lumot beradi. U falsafa so'zi ma'nosi haqida shunday yozadi: "Falsafa yunoncha bo'lib, arab tiliga chetdan kirgan so'zlardandir. Bu so'z ularning tillarida filosofo deb aytiladi. Uning lug'aviy ma'nosi-hikmatni yoqtirish demakdir. Bu so'z yunon tilida "filo" bilan "so'fiyo" so'zlaridan tarkib topgan. "Filo" deganda yoqtirish, sevish tushuniladi; "so'fiyo" deganda esa hikmat, donolik tushiniladi. Abu Nasr Farobiy o'zining "She'r va qofiyalar to'g'risida so'z" nomli asaridan bir xil tovushlar bilan tugallanadigan so'zlar, talaffuzdosh so'zlar, o'zak va qo'shimchalar qofiyasi nomi bilan ataladigan qofiya haqida ma'lumot beradi. Qofiya misra oxirini eslatish bilan ritmning shakllanishiga muhim hissa qo'shadi, deb ko'rsatadi Farobiy. Abu Nasr Farobiy o'z davrining yetuk adabiyotshunosi sifatida adabiyotshunoslik atamalardan tragediya, komediya, drama, satira, poema, epos, ritorika, yombi efijonosous, akustika haqida ma'lumot berib, ularning hozirgi ma'nosidan boshqa ma'noda ishlatilishini qayd etadi.

Mahmud Zamaxshariy-arablar va g'ayri arablar ustodi: Ilm-u fan xazinasiga bebaho durdonalar qo'shgan Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy Xorazm viloyatining Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi va voyaga yetdi. Zamaxshariyning fan olamidagi ulkan xizmatini hisobga olib, unga Sharq olimlari tomonidan "Ustoz-ul-arab val-ajam" "Faxr-i Xorazm", "Jorulloh" kabi unvonlar berilgan. U arab tilida nazm va nasrda yozilgan badiiy asarlardan tashqari tilshunoslik, adabiyotshunoslik,

falsafa, tarix kabi fanlarga oid ellikdan ortiq asar yozgan. Zamaxshariy arab maqollarini yigʻib oʻrganish borasida ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, “Al-mustasqo fi amsol-al-arab” asarida uch yarim mingga yaqin arab maqola alifbo tartibida berilgan. Zamaxshariy arab maqollarini yigʻib oʻrganish borasida ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, “Al-mustasqo fi amsol-al-arab” asarida uch yarim mingga yaqin arab maqola alifbo tartibida berilgan. Zamaxshariy oʻtkir olim boʻlish bilan birga, isteʼdodli yozuvchi va shoir ham edi. Olimning arab tili, adabiyoti va uslubi sohasidagi bilimlari uning badiiy asarlarida oʻz aksini topgan. Zamaxshariyning “Navobigʻ ul-qalim” “Maqomat az-Zamaxshariy Atvoq uz-zahab fil-mavoiz va-l xutab” kabi asarlari badiiy nasrning yuksak namunolari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak yuqoridagilar minglab mutaffakirlardan keltirilgan ignaning uchicha maʼlumot edi holos. Sharq mutafakkirlari tilshunoslik sohasiga beqiyos hissa qoʻshgan. Ularning qarashlari nafaqat lingvistik nazariyalar, balki til va tafakkur, madaniyat va jamiyat oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda ham muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Ayniqsa, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-Beruniy, Zamaxshariy kabi allomalarning ilmiy merosida fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika va stilistika masalalariga oid chuqur tahlillar uchraydi. Ular tilni bilim olish va uzatish vositasi sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy va falsafiy mohiyatiga eʼtibor qaratganlar. Sharq tilshunosligidagi bu yondashuvlar keyingi asrlarda ham lingvistik tafakkur taraqqiyotiga katta taʼsir koʻrsatgan. Demak, Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka oid qarashlari bugungi zamonaviy tilshunoslik fanining shakllanishida muhim poydevor boʻlib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

A.Musayev “Umumiy tilshunoslik” Toshkent “Oltin kitob” nashriyoti 2022
Wikipedia. Uz.wikipeida.org
Rasulov.”umumiy tilshunoslik”Toshkent 2013.